

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KITOBOXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Sherboyeva Nodira

*JDPU Boshlang'ich ta'lif nazariyasi va amaliyoti kafedrasini
katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasi demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidan borayotgan bir paytda ta'lif sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashdan iboratdir.

Kalit so'zlar: Kitob, kitobxonlik, madaniyat, ta'lif, ertak.

Аннотация: В то время как Республика Узбекистан находится на пути построения демократического, правового и гражданского общества, основной целью и движущей силой реформ, реализуемых в сфере образования, является воспитание всесторонне развитой личности.

Ключевые слова: Книга, чтение, культура, образование, сказка.

Abstract: While the Republic of Uzbekistan is on the path to building a democratic, legal and civil society, the main goal and driving force of reforms implemented in the field of education is the education of a comprehensively developed personality.

Key words: Book, reading, culture, education, fairy tale.

Xalq ta'lifi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning hozirgi bosqichida uning muhim bo'g'ini bo'lgan boshlang'ich sinflarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Negaki, ta'lifning bu bosqichi bolaning dunyoqarashi, didi, iqtidori shakllanishida hal qiluvchi omildir. Xuddi shu davrda dunyoga umid bilan qadam qo'yib kelayotgan navnihol inson hayotda munosib o'rmini topishiga, turmushidan, taqdirdidan, vatanidan

rozi bo‘lib yashashiga zamin yaratiladi. Shundagina u umr bo‘yi bunyodkorlik faoliyati bilan mashg‘ul bo‘ladi deyish mumkin. Maktab o‘quvchini o‘qish malakasi bilan tanishtirish bilan bir qatorda kitobni mustaqil o‘qiy oladigan, uni tushunadigan, ma’lum bir mavzuga oid kitoblarni tanlay oladigan, gazeta va jurnallarni ham mustaqil o‘qiydigan faol kitobxonni tarbiyalaydi. Shu jihatdan sinfdan tashqari o‘qish tarbiyaning asosiy quroli sifatida xizmat qiladi, ko‘p narsani bilihga havasni orttiradi.

O‘quvchilarning har tomonlama aqliy rivojlanishlari, tevarak-atrof bilan tanishish, bolalar shoir va yozuvchilari tomonidan yaratilgan asarlarni o‘rganish, xalq og‘zaki ijodi bilan tanishish, asosan kitobxonlikka havas uyg‘otishda sinfdan tashqari o‘qish darslarining ahamiyati katta. Sinfdan tashqari o‘qish darslarini tashkil etishning samarali usullaridan biri xalq og‘zaki ijodi namunalariga tayangan holda ish olib borishdir. Haqiqatdan ham, xalq og‘zaki ijodi manbalaridan foydalanish bolalarni badiiy-estetik tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, xalq og‘zaki ijodidagi birgina ertakning o‘zi bolalar dunyoqarashini boyitish, saviyasini kengaytirish, nutqini o‘sirishda beqiyos kuchga egadir. Deylik, ertak qahramonlari-bo‘rining yovuzligi, tulkingin ayyorligi, quyonning qo‘rkoqligi, sherning botirligi, itning vafodorligi, mushukning chaqqonligi, chumolining mehnatsevarligi kabi tushunchalar bolalarning ma’naviy olamiga ta’sir etadi, ular bu qahramonlar timsolida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, nafosat va qabohat o‘rtasidagi azaliy kurash natijasini ko‘radilar, ulardan dastlabki xulosalarni olishga odatlanadilar.

Tajribalar ertaklar o‘rganiladigan darslarni sahnalashtirilgan holda tashkil etish kutilgan natija berishini ko‘rsatadi. Faol, ertak qahramonlarini sahnada aks ettirishga layoqatli o‘quvchilar bilan o‘tkazilgan alohida mashg‘ulotlarda ertaklar sahnalashtiriladi. Mazkur darsga tayyorgarlik ishlari sinfning boshqa o‘quvchilaridan sir tutilmog‘i maqsadga muvofiqdir. Chunki tayyorgarlik mashqlarining o‘quvchilar ichida olib borilishi ertak o‘rganishi rejallashtirilgan darsning ular uchun zerikarli va qiziqarsiz kechishiga sabab bo‘lishi mumkin. O‘quvchilar ko‘zidan sir va pana tutilgan sahnalashtirilgan ertak darsi talab darajasida tayyorlansa, bu dars ular uchun haqiqiy

mo'jiza va favqulodda kashfiyot hisoblanadi. Chunki ertak voqealari bolalarning ko'z oldida jonli holda ro'y beradi. Tasavvur kuzatuv bilan uyg'unlashadi. Sahna qismidan keyin bir necha o'quvchilarning ertak haqidagi fikr-mulohazalari eshitiladi. Albatta, bunda uy ishi sifatida ertak mazmunini oila a'zolariga so'zlab berish topshirig'inining berilishi maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari o'quvchilar o'rtasida ertaklar bo'yicha "Men ertak qahramoni bo'lib qolsam", "Men ertakchi bo'lsam", "Mening sevimli ertagim", "Faol kitobxon" mavzusida suhbat va savol-javoblarning tashkil etilishi ham kutilgan natijani beradi. Shu bilan birga xalq og'zaki ijodi namunalaridan maqol, topishmoq va tez aytishlar ham bolalarda topqirlik, tezkorlik, mulohazalilik sifatlarini qaror toptirishga va shu orqali ular nutqini o'stirishga yordam beradi. Bunda esa o'quvchiga sinfda tashkil etilgan "Sinf kutubxonasi" eng yaqin ko'makchi sanaladi.

Adabiyotlar:

- 1."O'zbekiston boshlang'ich maktab kutubxonasi: nazariya va amaliyot" (mualliflar: A. Odilov, R. G'aniyeva, M. Azimova; nashr etilgan yili: 2022 y.)
- 2."O'zbekiston maktab kutubxonasi: mutolaa va ijod maydoni" (muallif: N.Nishonova; chop etilgan yili: 2019 yil)
- 3."O'zbekiston bolalar kutubxonasi: qanday yaratish va qo'llab-quvvatlash" (muallif: M. Maxmudova; nashr yili: 2021)
- 4."O'zbekiston boshlang'ich maktab o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish" (muallif: D.Jo'raeva; nashr yili: 2018-yil)